



OILAVIY UY MEHMONXONA XIZMATLARINING TASHKILIY MEXANIZMLARI

PhD, prof. Aslanova Dilbar

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0007-6473-5240

aslanovadx@umail.uz

Fattayev Jasur

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0007-6473-5240

fattayevjasur44@gmail.com

Annotatsiya. "Oilaviy uy mehmonxona" xizmatlarini tashkil etish ma'lum tartibli ketma-ketlik va iqtisodiy-ijtimoiy mexanizmlar asosida tashkil etilishi, faoliyat turining maqsadlari, talab etiladigan sharoitlarni, iqtisodiy subyektlarning huquq va burchlari hamda asoslanadigan mezonlarni belgilab olish.

Kalit so'zlar: oilaviy uy mehmonxona, xizmatlar, tashkiliy mexanizm, mezon, tartibli ketma-ketlik, ilmiy kategoriya, qulay shakl, xavfsizlikni ta'minlash.

ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УСЛУГ СЕМЕЙНОГО ДОМАШНЕГО ГОСТИНИЧНОГО ОТДЕЛЕНИЯ

PhD, проф. Асланова Дилбар

Самаркандский институт экономики и сервиса

Фаттаев Жасур

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. Организация услуг семейный гостевой домов организуется на основе определенной последовательности и экономических и социальных механизмов, целей вида деятельности, необходимых условий, прав и обязанностей хозяйствующих субъектов, а также критериев, на которых они основаны.

Ключевые слова: семейный гостевой дом, услуги, организационный механизм, критерий, упорядоченность, научная категория, удобная форма, безопасность.

ORGANIZATIONAL MECHANISMS OF SERVICES OF FAMILY HOME HOTEL DEPARTMENT

PhD, prof. Aslanova Dilbar

Samarkand Institute of Economics and Service

Fattayev Jasur

Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. The organization of services of family guest houses is organized on based on a certain sequence of economic and social mechanisms, goals of the type of activity, necessary conditions, rights and obligations of economic entities, as well as the criteria on which they are based.

Keywords: family guest house, services, organizational mechanism, criterion, orderliness, scientific category, convenient form, safety.

Kirish.

Turizm sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanib borayotgan sohalaridan biri ekanligi sir emas. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko'plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda, ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanish turizm sohasining tarkibiy elementi hisoblanadigan "Oilaviy uy mehmonxona" xizmatlarining tashkiliy mexanizmlarini hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatlarini tadqiq qilishni talab etmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki "Oilaviy uy mehmonxona" xizmatlarini tashkil etish ma'lum tartibli ketma-ketlik va ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar asosida tashkil etish faoliyat turining maqsadlari, talab etiladigan sharoitlarni, iqtisodiy subyektlarning huquq va burchlari hamda asoslanadigan mezonlarni belgilab olishga yordam beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Yuqorida ko'rsatilgan mexanizmlarni belgilab olishdan avval, oilaviy uy mehmonxona alohida ilmiy kategoriya sifatida dunyo olimlari tomonidan o'rganilayotganligini e'tirof etishni ma'qul ko'rdim. Bugungi kunda mehmon uylari to'g'risida turlicha nazariy qarashlar mavjud bo'lib, ulardan ayrimlari quyidagilar:

Nuriyaxmetova Alina Faridovnaning (2014) fikricha, mehmonuylari bu - ko'pincha qishloq joylarida sayyohlarni joylashtirish vositasidir va mehmonxonadan mehmon uyi uy sharoitida yashash sharoitlarini ta'minlovchi parametrlar to'plami bilan ajralib turadi.

Osipova Elena Eduardovnaning (2015) fikricha, mehmon uylari qishloq aholisi uchun iqtisodiy jihatdan qulay shaklidir, shuning uchun biznesni rejalashtirishning dastlabki bosqichlarida mehmon uyini to'ldirish xarajatlarini hisoblash kerak. Bundan tashqari, mehmon uyining kelajakda egasi marketing asoslarini bilishi kerak. Buxgalteriya hisobi, pul mablag'larini boshqarish, soliqqa tortish tizimi, mehmonlarni qabul qilish tajribasi va tavsiyalari, ularning ovqatlanishi va xizmatlarini o'rganish.

Chupaxinaning (2019) fikricha, mehmon uyi bu - ko'pincha oilaviy mehmonlar uchun qisqa muddatli xizmatlarni taqdim etish, shuningdek mehmonlar uchun dam olish faoliyatini tashkil etish, qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish, yoki ko'rsatma berish. Tur dasturlarini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha xizmatlarni taklif etadi.

Mehmon uylari xar tomonlama qulayligi va xamyonboblighi bilan sayyohlar e'tiborini tortadi va sayyohlar bilan gavjum bo'ladi. Mehmon uylarning avzallik tomonlari yana shundaki mehmon uylarida uy egalari sayyohlar istagan paytlari qo'shimcha xizmatlarni taklif eta oladi.

Balashovaning (2022) fikricha, mehmon uyi bu - albatta, sifatli xizmat ko'rsatish buyicha yetakchidir. Bunday uy egalari mehmonlarni "uyda bo'lgani kabi" shiori ostida sizni vaqtinchalik yashash qulay muhitiga imkon qadar yaqinlashtirishga harakat qiladi va mehmon uyining ijobiy hissiyotlarini qabul qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida induktsiya va deduktsiya, ilmiy abstraktlash, tizimli va qiyosiy tahlil, monografik hamda ekspert baholash usullaridan foydalanilgan. Ushbu usullar oilaviy uy mehmonxonalari ko'rsatadigan xizmatlarga mohiyati, tavsifi va tasniflanishining nazariy jihatlarini yoritib berishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Oilaviy uy mehmonxonalari ko'rsatadigan xizmatlarga talablar quyidagi maqsadlarda qo'yiladi:

- Mehmon uyining vaqtinchalik yashash bo'yicha xizmat (keyingi o'rinlarda xizmatlar deb ataladi) ko'rsatish sohasiga muvofiqligini tasdiqlash;
- Mehmon uylarida uning egasi tomonidan qayd etilgan ko'rsatiladigan xizmatlar va zarur moddiy-texnik bazaning mavjudligini tasdiqlash;

- Xizmat ko'rsatishning zarur darajadagi sifatini va tashrif buyuruvchilarning (turistlarning) xavfsizligini ta'minlash.

Mehmon uylari tashkil etilganda unda quyidagi sharoitlar bo'lishi kerak:

- Tashrif buyuruvchilar (turistlar) uchun sanitariya-gigiena qulayliklarini tashkil etish;
- Tashrif buyuruvchilarning (turistlarning) xavfsizligini ta'minlash;
- Tashrif buyuruvchilarning (turistlarning) qulay va yaxshi yashashlari uchun sharoitlar tashkil qilish.

Shuningdek, mehmon uylarni jihozlash borasida qo'shimcha xizmatlarning tavsiya etilgan ro'yxati ham mavjud. Biroq tavsiyalar majburiy hisoblanmaydi va ularni Reestriga kiritishdan rad etishga asos bo'la olmaydi.

Mehmon uy egalarining huquqlari.

- Ijarada turuvchilarni (turistlarni) mehmon uyiga ularni butunjahon Internet axborot tarmog'i va axborot-turistik markazlari orqali, ular mavjud bo'lmagan hollarda esa, bildirish tartibida hududiy ichki ishlar organlariga murojaat qilish yo'li bilan ro'yxatga qo'yish orqali ijara shartnomasini rasmiylashtirmasdan joylashtirish;

- Tashrif buyuruvchilar (turistlar) tomonidan jamoat tartibi me'yorlari buzilgan hollarda joylardagi huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro bog'lanib harakat qilish;

- Turizm faoliyati sub'ektlariga berilgan imtiyozlardan qonunchilikda belgilangan tartibda foydalanish.

Mavsumiy bo'lmagan davrda mehmon uylarining egalari ro'yxatga olish va soliq organlariga mehmon uyi faoliyati vaqtincha to'xtatish va ular o'z faoliyatini vaqtincha amalga oshirmaydigan qayd etilgan davrga soliq hisoblanishini vaqtincha to'xtatib qo'yish to'g'risida ariza berish yo'li bilan vaqtincha o'z faoliyatlarini to'xtatish huquqiga ega bo'ladilar.

Mehmon uy egalarining majburiyatlari: faoliyatini qat'iy ravishda qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirishi sanitariya qoidalarini, me'yorlari va gigiena normativlari, shuningdek, epidemiyaga qarshi va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini ta'minlashi mehmon uylari reestriga kiritilgan ma'lumotlar o'zgarganligi, shuningdek, o'z faoliyatini tugatganligi to'g'risida uch ish kuni mobaynida vakolatli davlat organini yozma yoki elektron shaklda xabardor qilishlari shart.

Vakolatli davlat organi quyidagilarga majbur:

- Vaqtinchalik yashash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibi bilan tanishtirish uchun, shuningdek, rejali asosda mehmon uylari xodimlarining bilimi va malakasini oshirish imkonini beruvchi profilaktika va tushuntirish ishlari, master-klasslar, treninglar va boshqa tadbirlarni tashkillashtirish mehmon uylarining samarali faoliyat ko'rsatishini tashkillashtirish va ta'minlashda har tomonlama yordam ko'rsatish manfaatdor davlat organlari bilan hamkorlikda mehmon uylarining egalarini favqulodda vaziyatlardagi harakatlar tartibi bilan tanishtirish;

- Mehmon uylarining egalarini turizm sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar va normativ hujjatlardagi o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida xabardor qilib borish zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini mehmon uylari bilan o'zaro munosabatlar sohasiga faol ravishda joriy qilib borish.

Tijorat banklariga Mehmon uylari yagona reestriga kiritilgan xususiy tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlik subyektlarining buyurtmalariga binoan eng kam oylik ish haqining 300 barobarigacha miqdorda, besh yil muddatga, shu jumladan 2 yillik imtiyozli davr bilan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan yuqori bo'lmagan stavka bo'yicha imtiyozli kreditlar ajratish tavsiya qilindi. Bunda tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan foiz stavkasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasining 1,5 barobaridan ortiq bo'lmagan kreditlar bo'yicha foizlar miqdorining yarmi O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Turizm faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Joylashtirish vositalarining o'rtasidagi farq asosan quyidagi mezonlarga asoslanadi: maqsad, joylashuv, taqdim etilgan xizmatlar turlari, xizmat ko'rsatish darajasi.

Standart mehmonxonadan mehmon uylarining farqi quyidagilarda nomoyon buladi:

- Mehmon uylari mehmonxonalardan farqli o'laroq, lisenziyani talab etmaydi.
- Mehmon uyi odatda, ikki yoki uch qavatli buladi nomerlar soni 10-15 tani tashkil etadi.
- Mehmon uyi belgilangan standart asosida tashkil etilmaydi.
- Mehmon uyida odatda mezbon yoki uy egasining oila a'zolari ishlaydi va xizmat ko'rsatadi.
- Mehmon uyida mehmonlarga xizmat ko'rsatishning narxi ancha past bo'ladi.
- Ko'pincha mehmon uylari shaharda va shahar chetida joylashgan ,mehmon xona esa shaharda joylashgan bo'ladi.

• Mehmon uylarining qulaylik darajasi mehmonxonadan farq qiladi va o'z ichiga quyidagilarni oladi: maxsus hammom, dush, sochlarini quritadigan fen mashinasi, suv isitgich, o'choq va boshqalar.

Mehmon uylarida eng asosiysi mehmon o'zini o'z uyidagidek xis qila oladi. Agar turist yuqoridagi qulayliklarga, uy sharoitlari, shaxsiy yondashuv, oilaviy yoki guruh bilan dam olishni xohlasa, mehmon uyini tanlashi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Mehmon uylari bu-mazkur mehmon uyida uy egasining oila a'zolari bilan birga yashash tamoyili bilan bir qatorda shinam va milliy xonalar, milliy shirin taomlar va xonadon egalariining iliq munosabatlari sayyohlarga o'z vaqtida turli tuman xizmatlarni ko'rsatilishi mehmon uylarining qulayligi, shinamligi, hamyonboblgi boshqa mehmonxonalarga oxshamaganligi bilan sayyohlar talablariga javob bera olishi bilan e'tiborini tortadi.

Dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishicha ushbu mexanizmlar asosida oilaviy uy mehmonxona xizmatlarni tashkil etish mehmonxona faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishning metodologik asosi sifatida tadbqiq etilishi mumkin.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Alimova Mahasti Ilxomovna. (2020) Oilaviy mehmon uylari xizmatlarini takomillashtirish yo'llari(Samarqand viloyati misolida) magistrlik dissertatsiyasi. SamISI.

Nizom (2018) 2018-yil 7-avgustdagi «Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 631-sonli qaroriga ilova qilingan "Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Nizom.

Osipova H.E. (2015) Determination of bacteriolytic activity and measurement of enzyme sorption by cells in the system of living *Lactobacillus plantarum*/в журнале Moscow University Chemistry Bulletin, издательство Allerton Press Inc. (United States), том 70, № 6, с. 292-297.

Ozodbek, J. (2023). IN THE INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL ECONOMY FOREIGN EXPERIENCE. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(7), 146-151.

Raximov Z.O., Norkulova D.Z. (2019) Mehmonxona xo'jaligida rejalashtirish. O'quv qo'llanma. - Samarqand: SamISI, -188 bet.

Safarov, Bahodirhon, and Djumaqulov O. Sh. (2020) "Tourism industry development is increasing, new jobs will increase incomes and living standards." Архивариус 2 (47): 105-107.

Нуриахметова А.Ф. (2014) Управления рисками в России // Экономика и менеджмент инновационных технологий. № 4 [Электронный ресурс]. URL: <https://ekonomika.snauka.ru/2014/04/4789> (дата обращения: 16.05.2025).